Natijalar va muhokama. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘rta maktab o‘quvchilarining tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va tanqidiy qaror qabul qilish qobiliyatlari eng muhim omil hisoblanadi. Raqamli o‘rganish muhiti va Research Cognitive Theory (RCT) asosidagi High School Research Cognitive Learning Program (HSRCLP) modeli o‘quvchilarga ilmiy izlanish jarayonini amaliy tarzda o‘rganish, multimediali resurslardan foydalangan holda ma’lumot yig‘ish va tahlil qilish imkonini beradi. Bu tendensiya o‘rta maktab o‘quvchilarini tadqiqotga yo‘naltirishda raqamli texnologiyalarni faol joriy etish va onlayn manbalarni samarali ishlatish zaruratini kuchaytiradi. Maqolada ko‘rsatilgan amaliy misollar shuni ko‘rsatadiki, high school research experience programs (HSREPs) o‘quvchilarda ilmiy kompetensiyalarni rivojlantirish va kelajakdagi ilmiy faoliyatga tayyorgarlikni oshirishga yordam beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy o‘qitish yondashuvlaridan farqli o‘laroq, raqamli muhit va zamonaviy pedagogik usullar orqali o‘quvchilarga haqiqiy, amaliy, interaktiv tadqiqot tajribasi berish samaraliroqdir. Shu bilan birga, o‘qituvchilar raqamli vositalarni samarali qo‘llash va o‘quvchilarning individual qiziqish-lari hamda talablariga moslash borasida metodik tayyorgarlikni kuchaytirishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, RCT asosidagi tadqiqotchilik modeli, raqamli vositalar va o‘quvchilarning digital preferencesini hisobga olgan pedagogik yondashuvlar birlashtirilganda, ular o‘rta maktab bosqichida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shadi va 21-asr talablariga mos bilimli, mustaqil va ijodiy o‘quvchi shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdullayeva N.X. Kompetensiyaviy yondashuv asosida oliy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash. – Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2019, 45–62-betlar.

(2). Al-Thani N.J., & Ahmad Z. (2025). Learning through “Research Cognitive Theory”. A new framework for developing 21st century research skills in secondary school students. Heliyon, 11(2), e41950. https://doi.org/10.1016/j. heliyon. 2025, e41950.

(3). Bo‘lajak pedagoglarning tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishning konsepsual asoslari (2025). Global Science Review, 1(1), 328–338. https://global-science-review.com/ojs/index.php/gsr/article/view/2156

(4). Creswell J.W. Research Design: Qualitative, Quantitative and Mixed Methods Approaches. 4th ed. Thousand Oaks: Sage Publications, 2014, 273 p.

(5). Doiraghusoha M. (2022). Pedagogical strategies for fostering digital literacy and online research skills in higher education. Interdisciplinary Journal Papier Human Review, 3(2), 1–13. https://doi.org/10.47667/ijphr.v3i2.228

(6). Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. 2nd ed. New Jersey, Pearson Education, 2015, pp. 198–220.

(7). Qurbonov O.S. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ilmiy tafakkurni rivojlantirish. “Uzluksiz ta’lim”, 2022, № 1, 19–27-betlar.

(8). “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-farmoni.

(9). Sabirova E.G., & Zakirova V.G. (2015). Formation of pupils’ research skills in informational and educational environment of elementary school. Procedia – Social and Behavioral Sciences, 191, 1139–1142. https://doi.org/10.1016/j. sbspro. 2015.04.056

(10). Sheninger E. (2014). Digital Leadership: Changing Paradigms for Changing Times. Thousand Oaks, CA, Corwin Press.

(11). Talabalarning ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish. (2026). World Conference on Agricultural and Earth Sciences, 1(2), 1–5. https://www.econferencia.com/index. php/7/article/view/136

(12). Talabalarning tadqiqotchilik ko‘nikmalari tushunchasi va uning tarkibiy komponentlari. (2026). Ustozlar uchun, 89(3), 66–71. https://journalss.org/index.php/ust/article/view/18682

Ashurova Shaxzoda Shavkatovna (Qarshi davlat Texnika universiteti “Xorijiy tillar” kafedrasi assisstenti; E-mail: shoxruz1312@gmail.com)

TALABALARDA NUTQIY-ME’YORIY KONSTRUKSIYALARNI XATOLAR USTIDA ISHLASH ORQALI OSHIRISH

Annotatsiya *Mazkur maqolada talabalarda nutqiy-me’yoriy konstruksiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda xatolar ustida ishlash metodikasining ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida talabalar nutqida uchraydigan grammatik, leksik, uslubiy va pragmatik konstruktiv xatólar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik bosqichlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda kommunikativ va interaktiv yondashuvlarga asoslangan metodlardan foydalanildi. Olingan natijalar xatolar ustida tizimli va maqsadli ishlash talabalarda nutqiy-me’yoriy konstruksiyalarni ongli va samarali qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi.*

Kalit so'zlar: *nutqiy-me'yoriy konstruksiya, nutqiy xatolar, kommunikativ yondashuv, metodika, talabalar nutqi.*

Ашурова Шахзода Шавкатовна (Ассистент кафедры иностранных языков, Каршинский государственный технический университет; **E-mail: shoxruz1312@gmail.com)**

ПОВЫШЕНИЕ РЕЧЕВЫХ НОРМАТИВНЫХ КОНСТРУКЦИЙ У СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ РАБОТУ НАД ОШИБКАМИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты методики формирования и развития речевых нормативных конструкций у студентов посредством работы над ошибками. В ходе исследования выявляются грамматические, лексические, стилистические и прагматические конструктивные ошибки в речи студентов, а также анализируются методические этапы, направленные на их устранение. В исследовании использованы коммуникативные и интерактивные методы обучения. Полученные результаты показывают, что систематическая и целенаправленная работа над ошибками способствует эффективному развитию у студентов навыков осознанного и нормативного использования речевых конструкций.*

Ключевые слова: *речевая нормативная конструкция, речевые ошибки, методика, коммуникация.*

Ashurova Shaxzoda Shavkatovna (Assistant at the Department of Foreign Languages, Karshi State Technical University; E-mail: shoxruz1312@gmail.com)

IMPROVING STUDENTS' SPEECH NORMATIVE CONSTRUCTS THROUGH ERROR ANALYSIS

Annotation. *This article examines the theoretical and practical aspects of developing students' speech normative constructions through systematic work on errors. The study identifies grammatical, lexical, stylistic, and pragmatic constructional errors in students' speech and analyzes methodological stages aimed at their correction. Communicative and interactive teaching methods were employed in the research process. The findings demonstrate that structured and purposeful error-focused instruction plays a significant role in enhancing students' ability to consciously and effectively use speech normative constructions.*

Key words: *speech normative construction, speech errors, communicative approach, methodology.*

Kirish Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarning nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni to'g'ri, aniq va kommunikativ vaziyatga mos holda qo'llashi muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xorijiy tilni o'rganayotgan talabalar nutqida uchraydigan turli grammatik, leksik va uslubiy konstruktiv xatolar ularning kommunikativ faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni shakllantirish jarayonida xatolar ustida ishlash metodikasini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi talabalar nutqida uchraydigan konstruktiv xatolarni aniqlash, tasniflash hamda ularni bartaraf etish orqali nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan samarali metodikani ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari esa nutqiy konstruksiyalarda uchraydigan xatolar turlarini aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorijiy tilni o'qitishda talabalar nutqini tahlil qilish va nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni shakllantirish masalasi lingvodidaktikaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ilmiy adabiyotlarda mazkur jarayon, asosan, xatolar tahlili va nutqiy konstruksiyalarning bosqichma-bosqich rivojlanishi asosida yoritilgan.

Xususan, H.Douglas Brown xorijiy til nutqidagi grammatik va leksik konstruktiv xatolarni tahlil qilish orqali talabalarda nutqiy konstruksiyalarning shakllanish darajasini aniqlash mumkinligini ta'kidlaydi. Masalan, "She go to school yesterday" kabi noto'g'ri konstruksiyalarni tuzatish orqali talabalar ongida me'yoriy nutqiy konstruktsiyalar shakllantirilishi mumkinligini ko'rsatadi.

S.P.Corder xatolarni noto'g'ri shakllangan nutqiy konstruksiyalarning tabiiy natijasi sifatida talqin qiladi. "I am agree with you" kabi iboralar interlanguage konstruktiv xatosi sifatida ko'rib chiqilib, ularning me'yoriy shakli orqali to'g'ri nutqiy konstruksiya mustahkamlanadi. Dell Hymes xorijiy til nutqining kommunikativ va pragmatik jihatlarini tahlil qilib, nutqiy konstruksiyalarning vaziyatga mos qo'llanishi muhimligini asoslab beradi. Uning fikricha, grammatik jihatdan to'g'ri, ammo kommunikativ vaziyatga mos kelmaydigan konstruksiyalar kommunikativ xato hisoblanadi.

Rod Ellis esa nutqiy konstruksiyalarning xorijiy tilni o'rganish jarayonida bosqichma-bosqich shakllani-shini yoritib, konstruktiv xatolarni til rivojlanishining tabiiy bosqichi sifatida izohlaydi. Masalan, "He go" kabi konstruksiyalar, keyinchalik, "He goes" shakliga o'tishi interlanguage konstruksiyalar rivojlanishini ko'rsatadi.

Rus metodikasida E.I.Passov xatolar ustida ishlashni nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida baholab, dialog va kommunikativ mashqlar orqali me'yoriy konstruksiyalarni mustahkamlashni tavsiya etadi.

O'zbek olimlaridan Sh.Qodirova xorijiy til nutqini rivojlantirishda nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni shakllantirish va konstruktiv xatolarni bartaraf etishga qaratilgan nazariy hamda amaliy yondashuvlarni taqdim etadi. Jamol Jalolov esa til o'qitish jarayonida konstruktiv xatolarni aniqlash va tuzatish orqali talabalarda me'yoriy nutqiy konstruksiyalarni shakllantirish mumkinligini metodik jihatdan asoslaydi. Mazkur adabiyotlar tahlili xorijiy til nutqini o'rganishda nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni shakllantirish va konstruktiv xatolar ustida ishlash til o'rganish samaradorligini oshirishning muhim omili ekanini ko'rsatadi. Multimodal materiallar talabalarga nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni xatolarini aniqlash va tuzatishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki ular o'quvchilarga turli vizual va audioresurslar orqali o'z nutqlarini yaxshilash imkonini beradi (Ashurova, 2025).

Tadqiqot metodologiyasi Mazkur tadqiqot talabalarda nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilib, unda sifat va miqdoriy tahlil metodlari uyg'unlashuvi asosiy metodologik yondashuv sifatida qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy lingvodidaktik va pedagogik tamoyillarga tayangan holda, talabalarning og'zaki va yozma nutqidagi me'yoriy hamda me'yorlardan chetga chiqadigan konstruksiyalarni aniqlash va tahlil qilishga yo'naltirilgan ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi.

Empirik ma'lumotlar kuzatish, diagnostik testlar, nutqiy topshiriqlar, suhbat va tajriba-sinov metodlari orqali yig'ildi. Ushbu metodlar yordamida talabalar nutqida uchraydigan konstruktiv xatolar aniqlanib, ularning lingvistik va kommunikativ xususiyatlari tahlil qilindi. Diagnostik testlar orqali talabalarning nutqiy-me'yoriy bilim va ko'nikmalari darajasi belgilandi.

Tadqiqot oliy ta'lim muassasasining xorijiy tillar yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida olib borildi. Og'zaki (dialog va monologlar) hamda yozma (esse, tarjima va yozma topshiriqlar) nutq namunalari asosida me'yorlardan chetga chiqadigan nutqiy konstruksiyalar grammatik, leksik, uslubiy va pragmatik jihatlarga ko'ra tasniflandi.

Xatolar ustida ishlash jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi: nutqiy konstruksiyalarni aniqlash va tasniflash; xatolar kelib chiqish sabablarini tahlil qilish; noto'g'ri konstruksiyalarni tuzatish va me'yoriy variantlarini izohlash; mashqlar va refleksiya orqali me'yoriy konstruksiyalarni mustahkamlash.

Tajriba-sinov natijalari talabalarda nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni ongli va to'g'ri qo'llash ko'nikmalari shakllanganini hamda ularning kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, nutqdagi xatolar ustida tizimli va maqsadli ishlashga asoslangan metodika talabalarda nutqiy-me'yoriy konstruksiyalarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv talabalarning nutqiy xatolarini faqat bartaraf etish bilan cheklanmay, balki ularni me'yoriy, ongli va kommunikativ jihatdan samarali nutqiy konstruksiyalarni qo'llashga yo'naltiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xatolarni tahlil qilish, ularning sabablarini anglash va me'yoriy va-riantlar bilan solishtirish orqali talabalar nutqiy kompetensiyasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Mazkur metodika oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'qitish jarayonida amaliy tavsiya sifatida foydalanish uchun dolzarb bo'lib, u o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Brown H.D. (1994). Principles of Language Learning and Teaching (4th ed., pp. 251–300). New York, Longman.

(2). Corder S.P. (1967). Error Analysis and Interlanguage (pp. 160–180). Oxford, Oxford University Press.

(3). Hymes D. (1972). On Communicative Competence (Chap. 2). In J.B.Pride & J.Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269–293). Harmondsworth, Penguin.

(4). Ellis R. (1994). The Study of Second Language Acquisition (Chaps. 3–5). Oxford, Oxford University Press.

(5). Пассов Е.И. (2003). Коммуникативный метод обучения иноязычной речи. Moskva, "Akademiya".

(6). Qodirova Sh. (2018). Xorijiy til nutqini rivojlantirish metodikasi (pp. 34–58). Toshkent, Oliy va o'rta maxsus ta'lim nashriyoti.

(7). Jalolov J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi (pp. 45–67). Toshkent, "Fan va texnologiya".

(8). Ashurova Sh.Sh. (2025). Advantages of using multimodal materials in developing speech-normative constructs in students. *Modern American Journal of Linguistics, Education, and Pedagogy*, 1(8), p. 144–149.